


01/11-02-05-108
25.11.2022-y.



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasida 2022- yil 25- noyabrda
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

BAYONI № 16

2022- yil 25- noyabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: Sh.Abdiyev Boshqarma boshlig'i v.b.
Qatnashdilar: Boshqarma boshlig'ining o'rinbosarlari,
Komissiya a'zolari, boshqarma hamda
shahar va tumanlar statistika bo'limlari
xodimlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

**Samarqand viloyati hokimligi tomonidan 2022- yil 26- sentabrda
15-01/125-son bilan tasdiqlangan yig'ilish bayonida belgilangan vazifa va
topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat statistika boshqarmasida
korrupsiyaviy holatlarning oldini olishda - shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash
muhim omil hisoblanadi mavzusini muhokama etish to'g'risida.**

(Sh.Abdiyev, T.Sidikov, A.Suyunov, Z.Davronov, U.Sadirov, Sh.Abdiyev)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig'i v.b Sh.Abdiyev so'zga chiqib, Samarqand viloyati hokimligi tomonidan 2022- yil 26- sentabrda 15-01/125-son bilan tasdiqlangan yig'ilish bayonida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat statistika boshqarmasida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishda - shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash muhim omil hisoblanadi mavzusi yuzasidan axboroti eshitildi.

Xulosa o'rnida, eng avvalo, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilganligini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, bu kabi tadbirlarni o'tkazishdan maqsad - yangi qonun hujjatlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bilan birga, yurtimizda korrupsiyaga qarshi muhosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bu jarayonlarda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish muhim o'rin egallashi to'g'risida ham to'xtalib o'tdi.

Ochiqlik va shaffoflik bilan keng jamoatchilikni boshqarma tizimida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qilish korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan tadbirlar shu bilan birga korrupsiyaning

oldini olish, korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi va tizimda barcha yo'nalishlarni qamrab olgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi va korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi - korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan tizim xodimlari o'zining mavqei va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va qo'mita tizimining ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi to'g'risida axboroti eshitildi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati hokimligi tomonidan 2022- yil 26- sentabrda 15-01/125-son bilan tasdiqlangan yig'ilish bayonida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma boshlig'i v.b. Sh.Abdiyevning kun tartibida belgilangan mavzu yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Axborot xizmati (Sh.Muhammadiyeva) va Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):

Boshqarma rasmiy veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnoma tuzuvchi

X.Xolmo'minov